

“MUQBIL VA MUDBIR” HIKOYATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Marg'uba ABDULLAYEVA

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori*  
[margubaabdullayeva507@gmail.com](mailto:margubaabdullayeva507@gmail.com)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804420>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sayyor syujetlardan biri “Muqbil va Mudbir” hikoyatlarining Navoiy ijodida tutgan o'rni o'rganilgan. Navoiyning xalq og'zaki ijodi va yozma manbalar orqali yetib kelgan an'anaviy syujetlardan samarali foydalangani ilmiy jihatdan asoslanadi. “Muqbil va Mudbir” mavzusidagi uch hikoyatning syujeti, obrazlar tizimi va g'oyaviy-didaktik xususiyatlari qiyosiy tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Navoiy, doston, an'anaviy syujet, Muqbil va Mudbir, obraz, motiv, qiyosiy tahlil.

**Аннотация:** В данной статье исследуется роль одного из путевых сюжетов «Мукбил и Мудбир» в творчестве Навои. Научно обосновано, что Навои эффективно использует традиционные сюжеты, полученные из фольклорных и письменных источников. Сравнительно анализируются сюжет, система образов и идейно-дидактические особенности трех рассказов на тему «Мукбил и Мудбир».

**Ключевые слова:** Навои, эпос, традиционный сюжет, Мукбил и Мудбир, образ, мотив, сопоставительный анализ.

**Annotation:** This article examines the role of one of the travel stories “Mukbil and Mudbir” in Navoi's work. It has been scientifically proven that Navoi effectively uses traditional plots obtained from folklore and written sources. The plot, system of images and ideological and didactic features of three stories on the theme “Mukbil and Mudbir” are comparatively analyzed.

**Key words:** Navoi, epic, traditional plot, Mukbil and Mudbir, image, motive, comparative analysis.

Alisher Navoiy ijodida “Muqbil va Mudbir” mavzusida uch hikoyat uchraydi. Bu haqda akademik Botirxon Valixojayevning “Mumtoz siymolar” [Валихўжаев, 2002. 132] monografiyasida ta'kidlab o'tilgan edi. Bular: “Hayrat ul-abror” dostoni 7-maqolati Qanoat bobida, “Saba'i sayyor”da oltinchi musofir tilidan aytilgan hikoyat hamda “Lison ut-tayr” dostonining 53-bobida keltirilgan hikoyatlardir.

Adabiyotshunos R.Jumayev o'z tadqiqotida “Hikoyat an'anasining o'ziga xosliklari” haqida to'xtalib, hikoyat janri musulmon Sharqi adabiyotidagi o'ziga xos bir adabiy hodisa ekanligini ta'kidlab o'tadi [Жумаев, 2018. 11–12.]. Hikoyat janri ma'lum bir voqeaga asoslanadi. Hikoyatlar odatda, muayyan asarning tarkibida keladi. Forsiy va turkiy adabiyotdagi hikoyat xususiyatlari o'rganilgan tadqiqotlar u qadar ko'p emas [Фанихўжаева, 1967. 20–23]. M.Kurbanniyazov “XIV asr o'zbek adabiyotida hikoyat janri taraqqiyoti (“Qisasi Rabg'uziy” misolida)” [Курбанниязов, 2018.173] mavzusidagi dissertatsiyasida “Qisasi Rabg'uziy” va “Nahjul farodis”dagi

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

hikoyatlarning tarixiy asoslarini, badiiylik mezonlarini o'rganib, XIV asr hikoyachiligi taraqqiyoti omillarini aniqlashga harakat qilgan. Agiografik asarlarda hikoyat janrining tasnifini amalga oshirgan [Qarang: Абдуллаева, 2021. 274]. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, hikoyat janri badiiy va didaktik asarlar misolida ilmiy jihatdan o'rganilgan. Biz Navoiy ijodida bu janrning o'ziga xos xususiyatlari, dostonlarda tutgan o'rni hamda suyuqtlari va obrazlar tizimini qiyosiy tahlil etishga harakat qilamiz.

“Hayrat ul-abror” dostoni 7-maqolati Qanoat bobi so'ngida “Qanoatli juvonmard bilan tamagir jahongashtaning hamroh bo'lgani, birining farog'at boyligiga berilganidan horlik azobiga qolgani, ikkinchisining qanoat azobini chekishi tufayli farog'at boyligiga erishgani” [Alisher Navoiy, 2013. 151] sarlavhasi ostida “Muqbil va Mudbir” haqida hikoyat keltiriladi. Masnaviy shaklidagi mazkur hikoyat ixcham tuzilishga, chuqur mazmunga ega. Hikoyat an'anaviy safar motivi bilan boshlanadi. Hikoyatning qisqacha mazmuni shunday: Fors yurtidan ikki o'rtoq Chin sari yo'l oldilar. Ularning birining qismatida qanoat bor edi. Ikkinchisida esa tama' bor edi. Ular yo'lda bir oddiy toshni ko'rdilar. Toshning yarmi yerda, yarmi tashqarida. Toshning tashqari qismiga bir gap o'yib yozilgan edi. Kimki qiyinchilikka bardosh berib, toshning orqa tomonini ag'darsa, unga bir afsona yozilgan. Afsonaga, ko'ra atrofda bir vayrona bo'lib, vayrona ostida xazina bor. Mahsaqqatga chidagan shu xazinaga ega bo'ladi. Kimki bu mashaqqatdan yiroq bo'lib, qanoat qilsa yaxshidir. Tamagir bu gaplarni o'qib, bezovta bo'ldi. Xazina havasi bilan toshning tagini qazishga kirishdi. Qanoatli kishi uning bu ishini ko'rib, parvo qilmasdan o'tib ketdi. U bu naqadar mashaqqatli mehnat! Mening boyligim va hamrohim qanoatimdir. Agar Tangri ehson berishni istasa, tosh yorilib, ehson egasini topadi, dedi.

U yo'lga tushib, tong otguncha yurdi. Erta tongda oldida bir shahar ko'rindi. Shaharga kiradigan yo'l ko'p edi. U kelgan yo'lidan shaharga avval kirdi. Darvozaga yaqin borganda, har tarafdin odamlar chopib kela boshladi. Bu yer odamlarining rasmi bo'yicha podshoh olamdan o'tgan bo'lsa, shahar xalqidan buni sir tutishar ekan. Sahar vaqtida kim shaharga birinchi kirsar, uni taxtga o'tqazib, boshiga toj kiydirib, qo'lga uzuk taqishar ekan. O'sha rasmga ko'ra, uni ham davlat kishilari va askarlari o'zlariga podshoh qilib ko'tardilar.

Boshiga mashaqqatni ortib olgan do'sti, boyligim havasiga berilib, toshni boshqa tomoniga aylantirdi. U yerda “Xomtama bo'lgan dunyoda doim azobda” yashaydi deb yozilgan edi.

Qanoat kishini mamlakatga podshoh qildi. Tamagirlik azobi uni xor-zor qildi.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Hikoyat xulosasi shundan iboratki, Navoiy o'ziga murojaat qilib, eldan bir diram ham tama qilma, o'zingda bor bo'lsa, uni boshqaga bersang, shuni o'zi karamdir, deydi. Shoir soqiyga nido qilib, qanoat sharobini ichirib, to'g'ri yo'lga boshlashini, qanoat mulkiga shoh qilishini so'raydi.

Hikoyat mazmunidan ko'rish mumkinki, Navoiy voqea qahramonlari nomini keltirmaydi. Balki ikki do'stning ikki fazilati orqali obraz yaratishga muvaffaq bo'ladi. Hikoyat zamirida pand-nasihati, o'g'it mujassam. Qanoat go'zal fazilat bo'lib, insonni yuqoriga ko'taradi. Tamagirlik esa insonni xoru zor qiladi. Navoiy hikoyatdan berilgan xulosani nafaqat kitobxon uchun, balki o'zi uchun ham muhim ekanini ta'kidlaydi. Qanoatni shior qilib, to'g'ri yo'ldan adashmaslikni, shu orqali qanoat mulkiga shoh bo'lishini istaydi.

“Sab'ai sayyor” dostoni 31-bobida “Oltinchi iqlim yo'lidan kelturgan musofir nuqtatirozlig'i” sarlavhasida katta hajmdagi, sarguzashtlarga boy “Muqbil va Mudbir” [Alisher Navoiy. 2013. 545] hikoyatini berib o'tadi. Oltinchi iqlim musofiri tilidan aytilgan mazkur rivoyat Boxtar yurtidan chiqqan ikki sayohatchi voqeasi bilan boshlangan. Hikoyat qahramonlari – biyobonlarni kezdigan Muqbil va daryolarda sayr qiladigan – Mudbirdir. Muqbilni Navoiy “ozodai humoyunfol” (ozod, kelajagi qutlug') inson sifatida ta'riflasi, Mudbirni esa yuziga baxtsizlik g'ubori qungan kishi sifatida tasvirlaydi. Muqbil insof va sabr-toqat timsoli. Mudbir esa noshukur, xudbin, tovlamachi.

Navoiy havfli bir vodiya “Vodiyi Hamim” haqida aytib, u yerga hech kim oyoq bosmasligini ta'kidlaydi. Muqbil va Mudbir mana shu vodiya kirib qoldilar. Bu vodiya yo'l azobi va uqubatlarni ko'rdilar. Har bir baloga sabr qilib, tavakkal qilib kirib boraverdilar. Havo isib, harorat hamma joyi kuydira boshladi. Bunga chidolmagan Mudbir Tangriga e'tiroz qila boshladi. Oyog'i og'rishidan nolib, hamrohiga ta'na toshlarini otdi.

Hikoyatda Muqbil itoatli va ibodatli solih kishi timsoli. Mudbir esa sabrsiz, itoatsiz, har narsadan noliydigan malomatchi kishi sifatida ko'zga tashlanadi. Shuni qayd etish zarurki, “Sab'ai sayyor” dostonidagi mazkur hikoyatning g'oyaviy asoslari “Hayrat ul-abror” dostonidagi qanoat va rostgo'ylik kategoriyalariga bog'lanib ketgan. Insonga xos go'zal axloqiy sifatlar hikoyatdan hikoyatga o'tib, takomillashib borgan.

Hikoyatda obrazlar tizimi quyidagicha aks etgan:

Asosiy qahramonlar – Muqbil va Mudbir;

Yordamchi epizodlar – Xovar shohi va uning qizi.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Bundan tashqari “Vodiyi Hamim”, dengiz, kema, qayiq, suv, sandal daraxti kovagidagi chashma (sandali simyo), tosh, daraxt barglari – ko‘zgu va sandal qasr ham voqealar rivojida muhim o‘rin tutadi.

Bu hikoyat ham yo‘l safari motivi bilan boshlangan. Shu bilan birga hikoyatda to‘fon motivi ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bu motiv Muqbil va Mudbirning dengizda ikki kishilik qayiqda bo‘lgan voqealarni tasvirlashda kuzatiladi. Ularning to‘fonga uchrashi quyidagicha tasvirlanadi.

*Tengiz uzra zuhur etib ko‘lok,*

*Kema ahlini ayladi g‘amnok.*

*Bo‘yla so‘zlar xitobi Haqqa mudom,*

*Buki: Yo‘q ishlaringda hech andom...*

*Shum anfosining shaomatidin,*

*Bahr chayqaldi mavj ofatidin.*

*Tushti datyoda ul sifat oshub,*

*Ki, su amvoji bo‘ldi gardunko‘b.*

*Soldi aning riyohi idbori,*

*Har kishi kemasin bir sori.*

*Uzdi zavraqchaning mahorini ham,*

*Tashladi jung raxtu borini ham.*

*Kemalarning ichinda oncha fariq,*

*Qoldi ba‘ziyu, ba‘zi o‘ldi g‘ariq.*

*Qolg‘ani dog‘i har taraf tushti,*

*Borchadin amin bartaraf tushti* [“Sab‘ai sayyor”, 549-bet].

Bu ikki kishining qayig‘i shiddat bilan harakatlanar, qayiq ichida esa Mudbirning ahvoli xarob edi. Muqbil duo qilib, Xudoga tazarru qilar, Tangridan yorlik tilar edi. Uning duosi bekorga ketmay, dengizdagi halokatli to‘lqin to‘xtadi. Shamol tinib, dengiz taskin topdi. Qayiq ham suv yuzida ohista yura boshladi.

Mazkur hikoyatda poetik o‘zlashtirish hodisasi to‘fon voqeasida yorqin aks etgan. Chunki bu syujet va motiv Nuh alayhissalom va to‘fon voqeasi ta‘sirida yaratilgan. Navoiy o‘zidan oldin yaratilgan xalq og‘zaki ijodi va yozma manbalarni chuqur o‘rgangan. Shundan ruhlanib, an‘anaviy motivlardan samarali foydalangan. Bizga ma‘lumki, an‘anaviy motivlar mualliflar tomonidan har bir xalqning mental xususiyatlariga xoslanib, diniy e‘tiqodlari va urf-odatlariga mos tarzda qayta ijodiy ishlangan. Hikoyatdagi to‘fon motivi ham Navoiy tomonidan shunday ishlangan. Hikoyatda sirli chashma voqeasidan keyin ham Muqbil va Mudbirning dengizga qaytgani, ikkinchi marotaba to‘fonga uchrashi tasvirlangan.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Hikoyatni keyingi syujeti tosh va unga yozilgan bitik “Hayrat ul abror” dostonida berilgan voqea bilan uyg'unlik kasb etgan. Navoiy unda chashma boshidagi toshga chashmaning xususiyatlari yozilgani va bu gaplarni Muqbil va Mudbir o'qiganini aytadi. Adib masalaga ikki xil yondashadi. “Hayrat ul-abror”da toshdagi yozuvdan maqsad mahsaqqatsiz boylikka erishib bo'lmalik g'oyasini ifoda etgan bo'lsa, “Sab'ai sayyor”da esa rostgo'ylik va yog'onchilikning oqibatlarini ko'rsatishni niyat qilgan.

Hikoyatda “Sandali simyo” laqabli daraxt va uning kovagida joylashgan chashma suvining bir qancha xususiyatlari sanab o'tiladi.

1) Xoh rostgo'y, xoh yolg'onchi, kimki shu suvdan ichsa, shu zahoti ochlik va tashnaligi qoladi.

2) Halol odam ichsa, bir oygacha hursand bo'lib yuradi. Yeyish-ichishga ehtiyoj sezmaydi. Yolg'onchi odam ichsa, uch kun o'tar-o'tmas qorni och qolib, yeb-ichishga ehtiyoj sezadi.

3) Chashma suvidan ichgan odam yolg'on gapirsa, qorni yorilib, birdan halok bo'ladi.

4) Daraxt kovagiga yolg'onchi kirsa, vujudi kuyadi, rostgo'y kirsa kuymaydi.

Ikki o'rtoqning sarguzashtlari yana bir sirli voqea tasviri bilan davom etadi. Chashma suvidan ichib, suv ostida yuz bergan sir-sinoatlar haqida bayon etiladi. Mudbir Muqbil hayotida katta o'zgarishlar bo'lganini bilishni istadi. Muqbil esa unga hech nimani oshkor qilmadi. Unga Mudbir yana yo'ldosh bo'ldi. Haqdan panoh tilab, qayiqclarini suvga surdilar. Muqbilning holi harob bo'lib, hajr o'tidan o'rtanar edi. Mudbir uning ahvolini kuzatib borardi.

*So'rsa erdi, javob bermas edi,*

*Kim g'ami sharh etardek ermas edi.* [“Sab'ai sayyor”, 561-bet].

Navoiy Mudbirni ishq asir etgani, ko'ngli ishqdan dard chekayotganini tasvir etadi. Voqealar rivoji ikki sayohatchini dengiz tomoshosi chiqqan Xovar shohi bilan uchrashtiradi. Xovar shohi bilan uchrashgan Mudbir yolg'onchiligi tufayli halok bo'ladi. Muqbil esa rostgo'yliqi sabab boshiga Humo qushi soya soladi. Muqbilning so'zlari yoqimli dilkash edi. Olijanob va xushxulq odam edi. Shoh uni o'z xizmatida qolishni taklif etdi. U taklifni bajonidil qabul qildi. Shohga minnatdorchilik bildirib, qulluq qildi. Shoh esa uni o'ziga vazir qilib oldi. Bir oz xizmatdan keyin uning boshiga Humo qushi soya soldi. Shoh uni uylanishga undab, farzandlikka qabul qildi. Muqbil uzrlar aytib, uning taklifini rad etardi. Chunki, uning hushini sandal qasrda o'tirgan qiz egallagan edi-da. Muqbilga shoh bir qanch sandal isli sarupolar kiydirib, uni sandal qasrga olib bordilar. Muqbil qarasa, bu

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

g‘aroyibotlarning barchasi o‘sha chashmada bo‘lgan sababchisi tarafidan bo‘layotgan ekan. Muqbil mahvashni ko‘rib, hushini yo‘qotdi. Nihoyat asta-sekin taskin topib, mahvashning visoliga yetdi [“Sab‘ai sayyor”, 334].

“Sabb‘ai sayyor” dostonida oltinchi iqlimdan kelgan musofir tomonidan aytilgan hikoyat hajm jihatidan yirik bo‘lib, bir nechda kichik voqealarni o‘zida jamlagan. Jumladan:

- a) biyobandagi “Vodiyi Hamim” voqeasi;
- b) dengizdagi to‘fon voqeasi;
- c) “Sandali simyo” sirlari;
- d) Xovar shohi bilan uchrashuv voqealaridan iborat.

Demak, mazkur hikoyat doston kompozitsiyasiga mos ravishda hikoya ichida hikoya uslubida yaratilgan sarguzashtlarga boy asardir.

Muqbili biyobongard — biyobon kezuvcchi Muqbil. Muqbil — iqqolli, qobil demakdir. “Mudbiri bihor navard” – daryo kezuvcchi Mudbir. Mudbir – ishi orqaga ketuvchi, baxtsiz demakdir. “Bu hikoya ikki tip, ikki xil xarakter to‘g‘risidadir. Ular har xil sharoitda ish tutadilar. Ana shu sharoitlarda ikki xarakter o‘rtasidagi ziddiyat aniq ko‘rinadi” [Қаюмов, 1985. 238]. Hikoyatda Muqbilning olijanob fazilatleri Mudbirning badfe‘lligi orqali aniqroq ko‘rinib boradi.

Nizomiyning “Haft paykar” dostonida sandal rangli qasrdagi go‘zal “Xayr va Sharr” (yaxshi va yomon) haqida hikoya so‘zlaydi. Navoiyning “Muqbil va Mudbir” hikoyasi g‘oya jihatidan Nizomiy hikoyasiga yaqin turadi. Bundan xulosa qilish mumkinki, Navoiy dostonlarida mashhur sayyor syujetlarni xalq og‘zaki ijodidan hamda salafleri an‘analaridan samarali foydalangan holda yaratgan.

Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ham Muqbil va Mudbir haqida hikoyat keltirilgan bo‘lib, shoir ularni shunday tasvirlaydi:

*Biri noqisvash, biri komilsifat,  
Onga Mudbir, munga Muqbil erdi ot.*

*Har biriga zot edi oti kibi  
Ul sifatkim, ot edi zoti kibi.*

*Muqbil aytur erdi ahlillohdin,  
Dinda xayli komilu ogohdin.*

*Ahli nuqsondin edi Mudbirg‘a so‘z  
Uylakim, but vasfidin kofirg‘a so‘z... [“Lison ut-tayr”, 68-bet]*

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ko'rinadiki, "Lison ut-tayr" dostonida keltirilgan hikoyatda ham ikki rafiqning bir yo'lda sayohat qilgani aytiladi. Mazkur hikoyat hajm jihatidan juda ixcham. Unda Muqbil, Mudbir, shoh obrazlari ishtirok etgan. Akademik B.Valixo'jayevning ta'kidlashicha, "Lison ut-tayr"dagi Muqbil va Mudbirga doir hikoyatda voqea va timsollar dostonning asosiy mavzusidan kelib chiqilgan holda tasavvufiy – ma'naviy yo'nalishda talqin qilingan" [Валихўжаев, 2002. 132]. "Lison ut-tayr" dostonida Mudbir gumrohu Muqbil tariqat sohibi, Mudbir noqisu Muqbil komil. Ikkisi yo'lda hamroh bo'ladilar. Muqbilning ta'rifini eshitgan shoh shahar darvozasida unga peshvoz chiqib, saroyga olib ketadi. Yuz hurmat ko'rsatib, ixlosu e'tiqodini namoyish qiladi. Mudbir esa kechasi ichib, mastlikda birovni o'ldirib qo'yadi. Shohga arz qilganlarida qasos hukmi bilan uni ham o'limga hukm qiladi.

"Muqbil va Mudbir" haqidagi syujetlar xalq og'zaki ijodida ham uchraydi. "Rivoyat qilishlaricha, ovga chiqqanida qadimgi Eronning sosoniylar sulolasiga mansub Xisrav Parvezning tojidagi qimmatbaho bir gavhar tushib qoladi. Shoh shaharga qaytgachgina buni sezadi. Saroy g'ala-g'ovur bo'lib ketadi. Chunki o'sha gavhar qimmatini butun bir mamlakatning bir yillik xirojiga teng ekan. Shuning uchun uni topib kelgan kishiga katta mukofot va'da qilinibdi. Gavharni qidirish boshlanibdi. Ittifoqo, biyobonni kesib, shahar tomon kelayotgan ikki kishini uchratadilar. Ulardan birining oti Mudbir bo'lib, takabburligi tufayli gavhar qidirayotganlarning boshlig'i bilan salom-alik ham qilmay burnini osmonga ko'targanicha g'o'ddayib o'tib ketibdi. Ikkinchisining ismi Muqbil bo'lib, u odamiylik yuzasidan boshliqqa tavoze bilan salom berish uchun egilar ekan, ko'zi yerda yotgan gavharga tushadi va uni olib boshliqqa uzatadi. Va'da qilingan mukofot Muqbilga tegib, u shohning yaqinlari safidan o'rin oladi, Mudbir esa kibri sababli shahar hammomiga go'lax bo'ladi. "Mudbir takabbur natijasidan shahar gulxanida maqom tutub, Muqbil adab va tavoze' foydasidan gavhari maqsud topib, shoh gulshanida orom topti" [Istiqlol davri o'zbek navoishunosligi. O'ttiz jildlik. Yigirma uchinchi jild. – Toshkent: Tamaddun. 2021. 234-bet]. Bu hikoyatda kibr va tavoze, xudbinlik va kamtarlik, gumrohlik va ogohlik, johillik va komillik, qisqasi, insoniy fazilat va illatlarni o'zaro bir-biriga qarama-qarshi qo'yish orqali yaxshi va yomon, baxtli va badbaxt kishi o'rtasidagi farq ko'rsatib berilgan. Navoiyning bu mavzuni yozishda shu kabi xalq rivoyatlaridan ham foydalanishi tabiiy.

Xulosa qilib aytganda, sayyor syujet va badiiy timsollar har bir asarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ijodiy ishlangan. Uch hikoyatda Navoiy Muqbil va Mudbir obrazlarini turli rakursda talqin qiladi. Bunday yondashuv Alisher Navoiy badiiy mahoratining rang-barang qirralarini ko'rsatadi.

Uch asarda ham hikoyatlar ikki o'rtoqning yo'lga chiqishi (safar motivi) bilan boshlangan. Bu yo'l uch hikoyatda g'oyaviy jihatdan farqlanadi. "Hayrat ul-abror" da berilgan hikoyatda yo'lga chiqishdan maqsad –qanoat inson uchun muhim sifat ekanini ko'rsatish bo'lsa, "Sab' ai sayyor" da inson xarakterining azaldan (qismat) da bitilganidan ayrilib bo'lmasligi, rostgo'ylik va yolg'onchilik oqibatlarini (baxtililik va baxtsizlikni) anglatishdan iborat bo'lgan. "Lison ut-tayr" dostonida esa sayyor suujet mazmuni tasavvufiy mohiyat kasb etgan.

Birinchi hikoyatda obrazlar nomlanmagan bo'lsa, ikkinchi va uchinchi hikoyatda Muqbil va Mudbir nomi bilan tasvir etiladi. Bundan anglash mumkinki, "Hayrat ul abror" dostoni xususiyatidan kelib chiqib, Navoiy yaxshi kishilarning hayratlanishini ikki o'rtoq voqealariga singdirib yuborgan.

Sab' ai sayyor" da berilgan "Muqbil va Mudbir" hikoyati dostonidagi voqealar rivojiga qaratilgan bo'lib, asosiy masala Diloromni topishga yo'naltirish bo'lgan. Ya'ni hikoyatdan maqsad ishq haqiqiy insonga xos bebaho tuyg'u ekanligini ko'rsatish edi.

Demak, tahlillarni umumlashtirsak, "Hayrat ul-abror" dostonida qanoatli Muqbil podshohlik martabasiga loyiq ko'riladi. Ikkinchi hikoyatdagi rostgo'y Muqbil esa vazir bo'ldi. "Lison ut-tayr" dagi tariqat sohibi – Muqbili komil ham podshoh hurmatiga sazovor bo'ldi. Anglash mumkinki, Navoiy butun jamiyatda Muqbilday kishilar ko'payishini, u kabilar davlatni boshqarishini orzu qilgan edi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

##### **(Использованная литература / References):**

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Oltinchi jild. Xamsa. Hayrat ul-abror. G'.G'ulom. – Toshkent: 2013. 151-bet.
2. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Yettinchi jild. Xamsa. Sab' ai sayyor. G'.G'ulom. – Toshkent: 2013. 549-bet.
3. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. To'qqizinchi jild. Xamsa. Lison ut-tayr. G'.G'ulom. – Toshkent: 2013. 68-bet.
4. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. –Тошкент: 2002. 132-бет.
5. Жумаев Р. Н. Маснавийи маънавий ва "Лисон ут-тайр" даги хикоятларнинг киёсий тахлили. PhD дисс. Автореф. – Т.: 2018. – Б. 11–12.
6. Ганихўжаева Н. Навоий хикоятларининг асосий манбалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1967. – № 4. – Б. 20–23;
7. Курбанниязов М.А. XIV аср ўзбек адабиётида хикоят жанри тараққиёти ("Қисаси Рабғузий" мисолида). Ф. ф. д. (PhD) дисс. – Т.: 2018. – 173 б.
8. Абдуллаева М. Адабий-тарихий асарларда кичик жанрлар поэтикаси. Филол.фан.док. дисс. – Самарқанд: 2021. – 274 б.
9. Istiqlol davri o'zbek navoishunosligi. O'ttiz jildlik. Yigirma uchinchi jild. – Toshkent: Tamaddun. 2021. 234-bet.